



ADVOKATURA INSTITUTI VA ADVOKATLARNING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA YURIDIK YORDAM KO'RSATISH JARAYONI PROTSESSUAL JIHLTLARI

Murtazayev Ulug'bek Dusmurodovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

“Advokatlik faoliyati” yo'nalishi magistranti

ulugbekmurtaza@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10225572>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil

Ma'qullandi: 25- November 2023 yil

Nashr qilindi: 30-November 2023 yil

KEY WORDS

advokat, ishonch bildiruvchi shaxs, xususiy tadbirkor, advokatlik tuzilmasi, axborot-yuridik yordam ko'rsatish; alohida topshiriqlar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish; barcha masalalar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish

ABSTRACT

Mazkur maqolada advokatlik faoliyati, uning tashkiliy-huquqiy shakllari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, advokat tomonidan vakil sifatida uning sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi ishtiroki, ishonch bildiruvchi shaxs bilan tuziladigan shartnoma turlari va ularga oid xaqaro va milliy qonunchilik normalari tahlil qilingan, huquq sohasiga oid olimlar fikri o'rganilgan.

Advokaturani tadbirkorlik faoliyati subyektlariga yuridik yordam ko'rsatish faoliyatini asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilash, bu borada aynan advokatlik tuzilmalariga alohida urg'u berishning o'ziga xos sabablari mavjud. O.Oqyulovning ta'kidlashicha, tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish tizimida tadbirkorning shaxsi muhim o'rin tutadi. Birinchi galda tadbirkor o'z huquqlarni, qonuniy manfaatlarini anglab yetgan va huquqiy savodxon bo'lishi lozim¹. Advokat tomonidan tadbirkorlik subyektiga yuridik yordam ko'rsatish mustaqil faoliyat yo'nalishi hisoblanadi. F.Otaxonovning fikriga ko'ra, tadbirkorlik subyektlariga yuridik yordam ko'rsatish faoliyatiga jalb etilgan subyektlarnifunksiyaviy jihatdanikkiga bo'lish mumkin.Birinchisi, tadbirkorlik subyektlariga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi barcha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va huquqiy yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar, ikkinchisi, normativ-huquqiy hujjatlarga asosan tadbirkorlik subyektlariga yuridik yordam ko'rsatish vazifasi yuklatilgan hamda bu borada tegishli vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlariva nodavlat tashkilotlar, shu jumladan advokaturaning mazkur yo'nalishdagi professional faoliyati tushuniladi².Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

¹ OkyulovO. Tadbirkorlikni rivojlantirish va unga nisbatan to'siqlarni bartaraf qilishning huquqiy muammolari. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish muammolari// Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami-T.: TDYUI, 2002 –B.36-39. (Okyulov O. Legal problems of business development and overcoming barriers to it. Problems of improving the system of support and protection of entrepreneurs // Proceedings of the scientific-practical conference -T.: TSU, 2002 -P.36-39

²Otaxonov F.X. Theoretical and legal problems of legal service. Monograph / Editor-in-Chief Tashkulov J.O. -T .: 2019. -B.-28)

hamhar kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Bundan tashqari Qomusimizning XXIV bobi Advokatura institutiga bag'ishlangan bo'lib, 141-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 142-moddada advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlathimoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi³.

Bundan tashqari, advokatlik tuzilmalari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilishning normativ-huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi hamda 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi, 2008-yil 31-dekabrda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlartashkil qiladi. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida advokatlik faoliyatining turlariga jumladan, tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 61-moddasiga ko'ra, shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillari bo'lishi mumkin bo'lganlar ro'yxatda advokat birinchi bo'lib sanab o'tilgan. Shuningdek, P.Abdullayevaning yuridik yordamni ikki turga, ya'ni malakali yuridik yordam va yuridik yordamga ajratishi, biroz munozarali yondashuvdir. Uning fikricha, malakali yuridik yordam faqat advokatlar tomonidan ko'rsatilsa, yuridik yordam esa prokuratura, adliya va boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladi⁴. Nazarimizda yuridik yordam faqatgina malakali bo'lishi mumkin va uning advokatlar tomonidan ko'rsatilishi Konstitutsiyaning Advokaturaga bag'ishlangan bobida bevosita begilab qo'yilgan. Shu bilan birga, prokuratura, adliya va boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy tushuntirish berish ishlarini yuridik yordamga tenglashtirish maqsadga muvofiq emas, boisi ularning mazkurishi tegishli tartibda ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida o'z aksini topgan (masalan huquqiy tushuntirish berish shaklida)⁵.

Fuqarolik kodeksining 45-moddasiga ko'ra, qonunga yoki yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs o'zi vakili bo'lgan yuridik shaxs manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish olib borishi kerak. U yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari, a'zolari) talabi bilan, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yuridik shaxsga yetkazgan zararini to'lashi shart. Shuningdek, 06.05.2014 yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

⁴ Nurumov.D Advokat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga yuridik yordam ko'rsatishning tashkiliy huquqiy masalalari// Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss...., TDYU, 2021.162 b

⁵ Коммерческое (торговое) право: Учебник /Под ред. Ю.Е.Буллатецкого, В.А.Язова. –М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2002. –С. 827-846 (Commercial(trade) law:Textbook/ Ed. Yu.E.Bulatetskiy, V.A. Yazov. -M.: IDFBK-PRESS, 2002. --S. 827-846);

Qonun⁶i 81-moddasida jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, jamiyat direktori va boshqaruvi a'zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim. Ya'ni sudda aksiyadorlik jamiyatining manfaatini ko'zlab jamiyat direktori, boshqaruv a'zolari hamda ishonchli boshqaruvchi qatnashishlari mumkin, bu advokatdan yuridik yordam olish huquqiga daxl qilmaydi. Bundan tashqari, 11.12.2003 yildagi "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi Qonun⁷ga ko'ra, xususiy korxonalar mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi, korxonalar nomidan ishonchnomasiz ish ko'radi, uning manfaatlarini ifodalaydi, xususiy korxonaning pul mablag'larini hamda boshqa mol-mulkini tasarruf etadi, shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisobvaraqlar ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, korxonaning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi. Fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan o'zlari va (yoki) vakillari orqali yuritishga haqlidir. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum qilmaydi. Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar) himoya qiladi. Qonuniy vakillar sudda ish yuritishni o'zlari tanlagan vakilga topshirishi mumkin. Mazkur moddaga muvofiq, sudda shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida ishlarni yuritish bo'yicha professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkin. Sudda vakillik taraflar, uchinchi shaxslar, arizachilar subyektivhuquqvaerkinliklar hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoyasining protsessual kafolati vazifasini bajarishga qaratilgan.

Suddagi vakil — ishonch bildiruvchi shaxs nomidan va uning manfaatlarini uchun berilgan vakolat doirasida protsessual harakatlar sodir etadigan hamda huquqlarini amalga oshirishda unga yordam beradigan jismoniy shaxsdir. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 61-moddasiga asosan, sudda iqtisodiy ishlar bo'yicha vakillik ikkita ajratiladi — qonuniy, ya'ni majburiy vakillik (IPK 61-moddasi 3-qismi) va shartnoma bo'yicha, ya'ni ixtiyoriy vakillik (IPK 61-moddasi 4-qismi). Yana bir o'ziga xos farqli jihati shundaki, ishonchnoma ishonch bildirayotgan shaxs — yuridik shaxs rahbari yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxs tomonidan beriladi. Order esa advokatlik byurosi, firmasi, hay'ati boshlig'i (rahbari) tomonidan beriladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan yakkatartibdagi tadbirkorlar soni 2022-yilning 12 oyi davomida 238 188 ta⁸, ga yetgan. 2022 yil 1 noyabr holatiga faoliyat yuritayotgan 96 148 ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib, ularning YaIMM dagi o'sishi 85% ni tashkil qiladi⁹. Ta'kidlab o'tish joizki, Savdo sanoat palatasiga a'zo tadbirkorlar nomidan sudda vakil bo'lib qatnashish, tadbirkor nomidan sudga da'vo arizani taqdim qilish Palataning vazifalaridan

⁶ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.2014 yildagi O'RQ-370-son Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son, 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son; 19.01.2023-y., 03/23/814/0036-son

⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.12.2003 yildagi 558-II-son Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

⁸ <https://www.spot.uz/oz/2023/01/12/individual-entrepreneur/> 12.05.2023 yilda murojat qilindi

⁹ <https://stat.uz/uz/> 12.05.2023 yilda murojat qilindi.

biri hisoblanadi. Holbuki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2023 yilgi "Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-15-sonli Qarori¹⁰ga ko'ra Palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab Oliy sudga ariza berish hamda iqtisodiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan shikoyat kiritish Savdo-sanoat palatasi vakolati sifatida belgilangan. Bundan tashqari palata vakolatlariga mahalliy davlat hokimiyati va boshqa hududiy davlat organlariga hududda tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish ham qo'shilganligi e'tiborga loyiqdir. Tadbirkorlarga erkinlik yaratish maqsadida mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari Palata a'zolariga, a'zolik va kirish badallaridan ozod qilingan holda, tekin qabul qilinadi hamda qonunda nazarda tutilgan a'zolik bilan bog'liq Palata xizmatlaridan to'laqonli foydalanish huquqiga ega. Shuningdek, Palata tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarida O'zbekiston Respublikasi sudlariga taqdim etadigan ariza, da'volar hamda apellatsiya va kassatsiya shikoyatlari bo'yicha davlat boji to'lovlaridan ozod etiladi. Fikrimizni isboti sifatida Oliy sudning 2020-2021 yillardagi iqtisodiy ishlar bo'yicha sud amaliyoti obzoridagi 16-1603/3560-sonli ishga ko'ra, Da'vo arizasi (ariza) berilganda iqtisodiy sudlarda davlat bojini to'lashdan davlat organlari, tadbirkorlik faoliyati bilanshug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek Soliq kodeksining 330-moddasida nazarda tutilgan boshqa tashkilotlar ozod qilinadi. Davlat boji to'lashdan ozod etilgan davlat organlari iqtisodiy sudlarga sud hujjatlari ustidan apellyasiya, kassatsiyava nazorat shikoyatlari bilan murojaat qilganda ham ular davlat bojito'lashdan ozod qilinadi. Ushbu qoida ular sud prosesida javobgarsifatida ishtirok etgan hollarda ham tatbiq etiladi. Xususi korxonalar (bundan buyon matnda da'vogar deb yuritiladi) sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasining buyrug'ini haqiqiy emas deb topishni so'ragan. Sudning ajrimi bilan Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining viloyat boshqarmasi, uman hokimiyati, OAJ va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarsifatida ishga jalb qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining "Iqtisodiy sudlar tomonidan davlat boji to'g'risidagi qonunhujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida" 2008 yil 18 apreldagi 180-sonli qarorining 25-bandida berilgan tushuntirishlarga muvofiq da'vo arizasi (ariza) berilganda iqtisodiy sudlarda davlat bojini to'lashdan davlat organlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojidandan ozod etilishi belgilangan¹¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususi mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son Farmoni¹², shuningdek 2017-yil 19-iyundagi "Biznesning qonuniy

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2023 yilgi "Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-15-sonli Qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2023-y., 07/23/15/0048-son

¹¹ <https://sud.uz/wp-content/uploads/2019/06/iktisod-ib-obzor-uzb.pdf> 23.05.2023 yilda murojaat qilindi.

¹² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 40-сон, 467-модда (Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2016, No. 40, Article 467)

manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5087-son Farmonlarida¹³ tadbirkorlikka keng yo'l berish, ular faoliyatiga aralashishni tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi va davlat organlarining muhim vazifasi etib belgilanishi tadbirkorlik subyektlariga yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatlarning zimmasiga ham muhim vazifalarni yuklaydi.

Tadbirkorlik subyektlari bilan advokatura (advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va byurolari) o'rtasida ko'rsatiladigan yuridik yordam hajmi, muddatlari va mazmunidan kelib chiqqan holda haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi uch xil ko'rinishda tuzilishi mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

a) axborot-yuridik yordam ko'rsatish; b) alohida topshiriqlar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish; v) barcha masalalar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish¹⁴. *Axborot-yuridik yordam ko'rsatish*

shartnomasi bo'yicha advokatlar tadbirkorlik subyektlari rahbarlari va mutaxassislarini hamda tadbirkorlik subyektlarini amaldagi qonun hujjatlari bilan tanishtiradilar va ularni amalda to'g'ri qo'llash bo'yicha maslahatlar beradilar. Bunday shartnoma ma'lum bir muddatga (ko'pincha bir yilga) yoki bir marotaba axborot olish uchun tuzilishi mumkin¹⁵. Xususan, yozma shaklda tuzilgan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnomalar)lar soni iqtisodiy ishlar bo'yicha 8 930 tani, sarflangan orderlar soni 8 930 tanitashkil etgan. Shuningdek, advokatlar tomonidan og'zaki (yozma) huquqiy maslahatlar va tushuntirishlar soni YATTLarga 6 737 ta, tijorat tashkiltlariga 9 185 ta bo'lsa, shundan haq evaziga 16 554 ta tuzib berilgan bo'lsa bepul amalga oshirilganligi 86 926 tani tashkil etgan¹⁶.

Alohida topshiriqlar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish shartnomasiga ko'ra tadbirkorlik subyektlari advokatlarga, jumladan ma'lum shartnomani tuzishda yozma huquqiy xulosa berishni yoki xo'jalik nizosi bo'yicha uning vakilisifatida sudga qatnashishni taklif qilishadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi¹⁷ Qonuni 20-moddasida xo'jalik shartnomasi subyektlariga yuridik xizmat ko'rsatish ularning yuridik xizmatlari yoki ana shu maqsadda shartnoma asosida jalb etilgan advokatlar tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Alohida topshiriqlar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish shartnomasi bir martalik xususiyatga ega bo'lib, u ijro etilgandan keyin o'z kuchini yo'qotadi. Barcha masalalar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish shartnomasi, odatda, muayyan muddatga (bir yil yoki undan ortiq muddatga) tuziladi va advokatura tadbirkorlik subyektlarining barcha faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish

¹³ O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, 2017 й., 25-сон, 522-модда(Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 25, Article 522)

¹⁴ Nurumov.D Advokat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga yuridik yordam ko'rsatishning tashkiliy huquqiy masalalari.// Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss...., TDYU, 2021.162 b

¹⁵Otaxonov F.X. Yuridik xizmatning nazariy-huquqiy muammolari.Monografiya / Mas'ul muharrir Toshqulov J.O'. – T.: 2019. –B.-28 (Otaxonov F.X. Theoretical and legal problems of legal service. Monograph / Editor-in-Chief Tashkulov J.O. -T.: 2019. -B.-28)

¹⁶<https://paruz.uz/post/otchety-o-deyatelnosti-advokatskih-formirovaniy-12.05.2023> yilda murojaat qilindi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 9-son, 170-modda(Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 1998, No. 9, Article 170)

majburiyatini oladi hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yuzaga keladigan barcha huquqiy masalalarni hal qilishga ko'maklashadi. Mazkur shartnomaga muvofiq advokatura tadbirkorlik subyektining yuridik xizmatiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi va ularga berilgan huquqlardan foydalanishi mumkin. Yuridik yordam ko'rsatish shartnomasida advokat tadbirkorlik subyektining xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganish hamda ro'y berayotgan huquqbuzarliklarni va kelib chiqayotgan nizolarni tahlil etish orqali ularni oldini olish choralari ko'rishdan manfaatdor bo'ladi. Aks holda tadbirkorlik subyektining faoliyatida huquqbuzarliklar va xo'jalik nizolari ko'payishi advokatning ish hajmini ortishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Okyulov O. Tadbirkorlikni rivojlantirish va unga nisbatan to'siqlarni bartaraf qilishning huquqiy muammolari. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish muammolari// Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami-T.: TDYUI, 2002 -B.36-39. (Okyulov O. Legal problems of business development and overcoming barriers to it. Problems of improving the system of support and protection of entrepreneurs // Proceedings of the scientific-practical conference -T.: TSU, 2002 -P.36-39
2. Otaxonov F.X. Theoretical and legal problems of legal service. Monograph / Editor-in-Chief Tashkulov J.O. -T.: 2019. -B.-28)
3. Nurumov.D Advokat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga yuridik yordam ko'rsatishning tashkiliy huquqiy masalalari.// Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss...., TDYU, 2021.162 b
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 9-son, 170-modda(Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 1998, No. 9, Article 170)
5. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, 2017 й., 25-сон, 522-модда(Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 25, Article 522
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2023 yilgi "Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-15-sonli Qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2023-y., 07/23/15/0048-son